



## Ona tilimizda bag'rikenglik masalasi.

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi  
mayor Ergashev SHoxrux Baxromjonovich*

**Annotatsiya.** Til ajdodlarimizdan bizga qadar yetib kelgan benazir xazinadir. U har qanday tilga mansub bo'lgan xalqning ma'naviyati, ruhiy olami, aql-idroki, insoniy fazilatilarini ifodalaydi. Dunyoda turli millat va elatlarga mansub uch mingdan ortiq til bor, ularning hammasini o'zlashtirish qiyin, ammo tilning mo'jizaviy qudrati shundaki, kishi o'zi uchun mutloq begona tilda so'zlashuvini eshitar yoki ularning urf-odatlariga guvoh bo'lar ekan, shu millat yoki elat haqida ma'lum tasavvurga ega bo'ladi. Ushbu maqolada tilga e'tibor naqadar dolzarb masala ekanligini yoritishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar.** Til, qonun, millat, tarix, ma'naviyat, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik.

**Annotatsiya.** Язык – это уникальное сокровище, дошедшее до нас от наших предков. Он представляет собой духовность, духовный мир, интеллект и человеческие качества людей, принадлежащих к любимому языку. В мире насчитывается более трех тысяч языков, принадлежащих разным нациям и народам, все они сложны для изучения, но чудотворная сила языка в том, что когда человек слышит говорящего на совершенно чужом языке или stanovitsya svidetelem ix obyчаев, он получает определенное представление об этой нации или народе. В этой статье мы попытались подчеркнуть, насколько важно внимание к языку.

**Ключевые слова.** Язык, право, нация, история, духовность, межнациональное согласие, толерантность.

**Annotation.** Language is a unique treasure that has come down to us from our ancestors. It represents the spirituality, spiritual world, intellect, and human qualities of people belonging to any language. There are more than three thousand languages belonging to different nations and peoples in the world, all of them are difficult to learn, but the miraculous power of language is that when a person hears speaking in a completely foreign language or witnesses their customs, he gets a certain idea about this nation or people. In this article, we tried to highlight how important the attention to language is.

**Keywords.** Language, law, nation, history, spirituality, interethnic harmony, tolerance.

**Kirish.** Dunyo mamlakatlari orasida millatni millat ekanligini ko'rsatib beruvchi omillardan biri, uning ona tilisidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog'i, Ramzi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat



ramziga aylandi. Ayniqsa, Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgatishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Turli manbalarda ham milliy til davlat tiliga aylangan mamlakatlar o'z tarixiga ega bo'lib, jadallik bilan rivojlanib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'sha xalqning turli sohalarda yuksak marralarni qo'lga kiritishlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Gap ona tilimiz haqida borarkan, tilning asosi bo'lmish So'z xususida fikr yuritish o'rinlidir. Zero so'z – tirikjon yanglig' ilohiy ne'mat.Unga yolg'on, makr fisqufasod aralashsa jozibasi va latofatini yo'qotadi. Insonni uning nazokatli lutfi, so'zlash va tinglash odobi, fikrlash tarzi orqali bilsa bo'ladi. Chunki, so'z fikrga aylanib beqiyos ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Ulug' allomalar: "Ta'sirli so'z hayotning jonbulog'idir, fikrlayotgan odam yashashda davom etadi. Fikrlashdan to'xtagan odamning ma'naviy umri to'xtaydi, deydi. Fikr insonni harakatda, jamiyatni rivojlanish xolatida ushlab turadi.

Yoqimli va mukammal nutq inson uchun muhim fazilatdir. Yaxshiso'z, yaxshi habar dilni quvonchga to'ldiradi. Yuragiga malhamdek ta'sir qiladi. Bu boisdan ham xalqimizda "Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqadi, yomon so'z bilan qilich qinidan", deb bejiz aytilmagan.

Qaykovusning "Qobusnoma"asarida nutq va muomala odobiga alohida e'tibor berilgan. Asarning yettinchi bobida quyidagilarni o'qiymiz: "Ey farzand, toki qila olsang, qo'lingdan kelsa, so'z eshitmoqdan qochmagil, kishi so'z eshitish bilan suxango'ylikni hosil qiladi. Yolg'on va bexuda so'z aytmoq, devonalikning bir qismidir. Har kishiga so'z aytar bo'lsang, qaragin, u sening so'zingga xaridormi yoki xaridor emasmi. Agarda uni so'zingga xaridor topsang, unga so'zingni sotgin, deydi.

Yusuf xos Hojib "Qutadg'ubilik"asarida til bobida, ya'ni o'qish va bilim olishda tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli so'zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik xususida quyidagilarni bayon qiladi: "Til aql va bilimning tarjimonidir. Bilki, kishini nuroniy qiluvchi vosita uning ochiq va mazmundor tilidir.Til kishini izzatli qiladi. Kishi tili bilan baxtli bo'ladi.Til arslondir. Qara, u seni doim eshikda poylab yotadi.Ey mag'rur uy xo'jasi, xushyor bo'lki, agar tilingga ortiqcha erkinlik bersang, o'ylamay so'zlasang bir kun emas bir kun u sening boshingni yeydi".

Akademik Abdulla Aziz "So'z – tan, joni – ma'no" deb haq so'zni aytgan edilar. So'zning nechog'liq qudratli ekanligini bolaligimizda onalarimizdan tinglagan ertaklar orqali anglab borganmiz. Ertaklardagi "Assalomu alaykum" so'zi hayot-mamot masalasini hal etganini turli obrazlar orqali o'qib o'rganganmiz.

Hazrat Alisher Navoiy o'z asarlarda so'zni go'zal qiyoslab berganlar. Ular: "So'z shundaydurkim, uning daryosi ko'ngildir. Ko'ngil shunday o'rinki, unda mayda va yirik



ma'nolar mujassam bo'ladi. Dur g'ovvos vositasi yordamida suv tubidan olib chiqib, toshga qarab uning bahosi belgilansa, so'z gavhari ko'ngil tubidan so'zgachechan insonlar nutqi orqali bayon etiladi. Va o'sha insonga shon-shuhrat keltiradi. Shirin so'z badanga tirik ruh bersa, yomon so'z esa badanni zaharlovchi vositani hosil qiladi",-degan edilar.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, tilning mustahkamligi, ona tilini chuqur o'zlashtirish, uni asrab-avaylash jamiyatning ma'naviy poydevori nechog'lik mustahkaligini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Ona tilimiz, undagi noyob so'z va iboralar, hikmat va maqollar asrlar davomida juda katta tajriba asosida shakllangan, to'plangan va sayqal topgan. Bu beqiyos hazina biz va keyingi avlodlar uchun ham meros hisoblanadi. Bu merosdan baxramand bo'lgan buyuk ajdodlarimiz al Xorazmiy, Abu Nosir Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur singari mutafakkirlar dunyo tamadduni rivojiga munosib xissa qo'shganlar.

Xulosa qilib aytganda tilga e'tibor, unimilliy boylik sifatida asrab-ardoqlab boyitish, kelajak avlod vorislariga bus-butun yetkazish ajdodlarimiz oldidagi ma'naviy burchimiz hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent-2007 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.
- 3 Ona-tili va adabiyoti. Abduroziq Rafiev. Sharq-2010 yil.
4. O'zbekiston tarixi. Maxmudjon Sodiqov. Toshkent-2016 yil.
5. www.ziyouz.com.